

TARJIMASHUNOSLIK

UO‘K(UDC, УДК): 821.56.18

MILLIY TARJIMA VA TARJIMASHUNOSLIK: TARIX, TAJRIBA VA MUAMMOLAR²⁷

Jo‘raqulov Uzoq Haydarovich

Filologiya fanlari doktori

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

“Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik”

kafedrasini mudiri, professor

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: juraqulovuzoq@navoiy-uni.uzORCID ID: [0009-0004-7506-4372](https://orcid.org/0009-0004-7506-4372)

ANNOTATSIYA

KALIT SO‘ZLAR

Mazkur maqolada o‘zbek tarjimachiligi va tarjimashunosligining tarixiy taraqqiyoti, nazariy asoslari hamda zamonaviy muammolari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Muallif o‘zbek tarjimachilik maktabining shakllanish jarayonini qadimiy davrlardan boshlab izchil ko‘rib chiqadi hamda bu jarayonning ijtimoiy-madaniy rivoj bilan chambarchas bog‘liqligini asoslaydi. Tadqiqotda islom davridan boshlab arab, fors va boshqa tillardan qilingan ilmiy, diniy va badiiy tarjimalar milliy madaniyat rivojida muhim omil bo‘lib xizmat qilgani ko‘rsatib beriladi. Ayniqsa, ikki uyg‘onish davrida tarjimachilik faoliyatining kengaygani, turkiy tilning adabiy imkoniyatlari boyiganligi alohida ta’kidlanadi. Maqolada XX asr boshlarida jadid ziyolilari faoliyati o‘zbek tarjimachiligining zamonaviy bosqichini boshlab bergani ilmiy dalillar asosida yoritiladi. Jadidlar jahon adabiyoti namunalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish orqali milliy ma’rifat va madaniyatni rivojlantirishga katta hissa qo‘shganlari qayd etiladi. Shuningdek, sovet davri tarjimachiligi, bu davrdagi tarjima amaliyoti, nazariy izlanishlar va ularning yutuq hamda kamchiliklari ham batafsil tahlil qilinadi. Muallif o‘zbek tarjima maktabining shakllanishida Cho‘lpon, Usmon Nosir, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda kabi ijodkorlarning tarjimonlik faoliyati muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Tadqiqotda tarjimashunoslikning nazariy masalalari, xususan, adekvatlik, kongeniiallik, muallif uslubini saqlash, tarjimonning til va madaniyatni chuqur bilishi kabi masalalar ham ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Bundan tashqari, qardosh turkiy xalqlar adabiyotidan qilingan tarjimalar ham milliy adabiy aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaganini ta’kidlanadi. Muallif mavjud tarjima tajribalarini umumlashtirib, o‘zbek tarjimachiligining istiqbollari hamda rivojlanish yo‘nalishlari haqida muhim ilmiy xulosalar ilgari suradi.

Tarjima, tarjimashunoslik, tarjimon, kongeniiallik, realiya, ijodiy tarjima, so‘zma-so‘z tarjima, qardosh tillar asro tarjima, folklor, she‘riyat, drama, nasriy matn.

Received: February 09, 2026**Accepted:** February 18, 2026**Available online:** May 10, 2026²⁷ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Jo‘raqulov U. Milliy tarjima va tarjimashunoslik: tarix, tajriba va muammolar. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 3(11) — B. 317-341.

**NATIONAL TRANSLATION AND TRANSLATION STUDIES: HISTORY,
PRACTICE, AND ISSUES****Uzoq Haydarovich Jorakulov***Doctor of Philological Sciences**Alisher Navoiy Tashkent State University**of Uzbek Language and Literature**Head of the Department of “World Literature and**Comparative Literary Studies”, Professor**Tashkent, Uzbekistan**E-mail:* juraqulovuzoq@navoiy-uni.uz*ORCID ID:* [0009-0004-7506-4372](https://orcid.org/0009-0004-7506-4372)**ABSTRACT**

This article analyzes the historical development of Uzbek translation and translation studies, their theoretical foundations, and contemporary issues from a scholarly perspective. The author consistently examines the formation of the Uzbek translation school beginning from ancient times and substantiates the close connection between this process and the socio-cultural development of society. The study demonstrates that since the Islamic period, scientific, religious, and literary translations from Arabic, Persian, and other languages have played an important role in the development of national culture. Special attention is given to the fact that during the two periods of cultural renaissance, translation activities significantly expanded and the literary potential of the Turkic language was considerably enriched.

The article also highlights, based on scholarly evidence, that the activities of Jadid intellectuals at the beginning of the twentieth century marked the beginning of the modern stage of Uzbek translation. It is noted that the Jadids made a significant contribution to the development of national enlightenment and culture through translating works of world literature into the Uzbek language. Furthermore, the translation practice of the Soviet period, theoretical research in the field, as well as their achievements and shortcomings are analyzed in detail. The author shows that the formation of the Uzbek translation school was strongly influenced by the translation activities of prominent literary figures such as Cholpon, Usmon Nasir, Gafur Ghulom, Abdulla Qahhor, and Maqsud Shaykhzoda.

The study also discusses theoretical issues in translation studies, including the problems of translation adequacy, congeniality, preservation of the author's stylistic features, and the translator's deep knowledge of language and culture. In addition, translations from the literatures of related Turkic peoples are emphasized as an important factor in strengthening literary and cultural connections. Summarizing the existing translation experience, the author proposes important scholarly conclusions regarding the prospects and future directions of Uzbek translation and translation studies.

KEYWORDS

Translation, translation studies, translator, congeniality, realia, creative translation, literal translation, translation between cognate languages, folklore, poetry, drama, prose text.

НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПЕРЕВОД И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ: ИСТОРИЯ, ОПЫТ И ПРОБЛЕМЫ

Джуракулов Узок Хайдарович

Доктор филологических наук, профессор,
заведующий кафедрой “Мировая литература и
сравнительное литературоведение”

Ташкентский государственный университет
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои
Ташкент, Узбекистан

E-mail: juraqulovuzoq@navoiy-uni.uz

ORCID ID: [0009-0004-7506-4372](https://orcid.org/0009-0004-7506-4372)

АННОТАЦИЯ

В данной статье с научной точки зрения анализируются историческое развитие узбекского перевода и переводоведения, их теоретические основы и современные проблемы. Автор последовательно рассматривает процесс формирования узбекской переводческой школы, начиная с древнейших периодов, и обосновывает тесную связь этого процесса с социально-культурным развитием общества. В исследовании показано, что, начиная с исламского периода, переводы научных, религиозных и художественных сочинений с арабского, персидского и других языков сыграли важную роль в развитии национальной культуры. Особо подчеркивается, что в периоды двух культурных ренессансов переводческая деятельность значительно расширилась, а литературные возможности тюркского языка существенно обогатились.

В статье на основе научных фактов освещается деятельность джадидских просветителей начала XX века, которая положила начало современному этапу развития узбекского переводческого дела. Отмечается, что джадиды внесли значительный вклад в развитие национального просвещения и культуры путем перевода произведений мировой литературы на узбекский язык. Кроме того, подробно анализируются особенности переводческой практики советского периода, теоретические исследования в данной области, а также их достижения и недостатки. Автор показывает, что важную роль в формировании узбекской переводческой школы сыграли переводческие работы таких выдающихся деятелей литературы, как Чулпон, Усмон Носир, Гафур Гулям, Абдулла Каххор и Максуд Шайхзода.

В исследовании также рассматриваются теоретические проблемы переводоведения, в частности, вопросы адекватности перевода, конгениальности, сохранения авторского стиля, а также необходимость глубокого знания переводчиком языка и культуры оригинала. Кроме того, подчеркивается, что переводы произведений литературы родственных тюркских народов сыграли важную роль в укреплении межлитературных связей. Обобщая существующий переводческий опыт, автор делает важные научные выводы о перспективах и направлениях дальнейшего развития узбекского переводческого дела.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Перевод,
переводоведение, переводчик,
конгениальность, реалии,
художественный перевод,
дословный перевод, перевод
между родственными языками,
фольклор, поэзия, драма,
прозаический текст.

KIRISH

O‘zbek tarjimachiligi qadimiy, ulkan va o‘z tamoyillariga ega bir maktabdir. O‘zbek ijtimoiy-madaniy tarixida bu jarayon, ayniqsa, islomdan keyin gurkirab rivojlandi. Dastlab diniy, keyinroq ilmiy mavzudagi asarlar tarjimasi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, bora-bora badiiy tarjimalar ehtiyoji paydo bo‘ldi. Arab tilidan Qur‘on, Hadis asosidagi fiqh, aqiyda, tafsir, sharhga doir asarlar tarjima qilindi. Arabcha matnlar tabdil qilinishi bilan birga, ularga arabiy, forsiy, turkiy tildagi sharhlar yozila boshladi. Ilmiy-ma‘rifiy, maishiy-iqtisodiy, adabiy-estetik ehtiyojlar doirasida avvalo faroiz ilmi, geometriya, matematika, meditsina, fizika, tabiatshunoslik, astronomiya, falsafa muammolari aks etgan asarlar o‘girila boshladi. Mumtoz poetika, she‘r ilmi, qofiya ilmiga bag‘ishlangan asarlarga murojaatlar kuchaydi. Natijada tarjimachilik ko‘lami kengaydi. Ayni paytda, suryoniy, xitoy, eron, yahudiy, yunon tillaridan to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjimalar maydonga kela boshladi. Bu jarayonlar ko‘lami IX – XIII; XV – XVI asrlarda ro‘y bergan ikki Uyg‘onish davrida o‘ziga xos tarzda kengaydi, yangi-yangi qirralarini namoyon etdi.

Badiiy tarjimachilik tarixi ham folklor, qadim she‘riyat namunalari, mumtoz adabiyot misolida o‘zining salmoqli manbalariga ega. Hind, arab, fors xalqlari ijodiyotidan qilingan tarjimalar ikki uyg‘onish davrida islom etikasi asosida shakllangan yangi adabiyot taraqqiyoti uchun muhim edi. Bunday tarjimalar kerak o‘rinlarda to‘laligicha, lozim joylarida muayyan qismlari o‘girildi. Madrasalarda “balog‘it ilmi” qoidalarini asoslash, she‘riy asarlar misolda talqinlash uchun qadim arab va fors shoirlari asarlarining istifoda etilgani ma‘lum. Original asosida tushuntirilgan balog‘at qoidalari, mutaxassis ulamolar tomonidan bevosita turkiy tilga o‘girib ham berilgan. Chunki shakllanayotgan musulmon turkiylardan iborat auditoriyada bunday tizimli talqinga ehtiyoj bor edi. Bundan tashqari, islom uyg‘onishi davrida vujudga kelgan aniq, tabiiy fanlarda kuzatilganidek, gumanitar sohalarda ham muayyan ilmiy muammoni sochma (nasr) yo‘li bilan emas, tizma (nazm) yo‘li bilan anglatish an‘anasi bor ediki, uning retseptiv jarayondagi samarasi juda katta bo‘lgan. Shu tariqa aqiyda, fiqh va hadis ilmiga doir manbalar turkiy qavmlarga she‘riy yo‘l bilan yetkazilishi jarayonida hijo, turoq, qofiyaga asoslangan, ma‘lum ma‘noda muallif nuqtayi nazari, ijtihodi bilan to‘yintirilgan tarjimalar maydonga keldi. Bu o‘rinda islom davrida maydonga kelgan mumtoz arab va fors shoirlari asarlari tarjimalarini ham alohida ta‘kidlash maqsadga muvofiq. Ayniqsa, bunday badiiy tarjima jarayoni Navoiygacha va Navoiy davrida o‘zining haddi a‘losiga chiqdi. Turkiy til va turkiy adabiyotni takomillashtirish, uni dunyodagi yetakchi til maqomiga olib chiqish yo‘lidagi tizimli harakatlar ikki yo‘nalishda davom etdi: birinchidan, Yusuf xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Xorazmiy, Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroyi, Lutfiy singari shoirlarning

bevosita turkiy tilda olib borgan ijodiy faoliyatlari; ikkinchidan, oʻzga tilli (asosan, arab, fors) adabiyot namunalaridan qilingan tarjimalar. Ayni paytda, Mahmud Koshgʻariy asos solgan turkiy lugʻatchilik ilmi, Navoiyning “Muhokamat ul-lugʻatayn” asari islom muhitida shakllanayotgan turkiy adabiyotning asoslarini qoʻyish, taraqqiy ettirish, koʻp tilli islom madaniyati bilan sintezlashishiga xizmat qildi. Movorounnahr hududida yuz bergan ulkan ijtimoiy oʻzgarishlar, temuriylar dinastiasining parchalanib ketishi, Boburning Hindistonga yoʻl olishi, Shayboniylar sulolasining maʼlum bir davr bu ulkan saltanatlar madaniyatini saqlab turganidan qatʼi nazar, turli urugʻlar (shayboniylar, ashtarxoniylar, mangʻitlar) negizida paydo boʻlgan uch xonlik davrida ham, garchi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy jabhalarda parokandalik roʻy berganiga qaramasdan, adabiyot va tarjimachilik anʼanalari davom etdi. Xorazm adabiy muhitida Feruz va Ogahiy, Qoʻqon adabiy muhitida Umarxon va Fazliy, Buxoro adabiy muhitida qator turkiy tilli shoirlar faoliyatida tarjimachilik ham muayyan oʻrin tutgan. XIX asr axiri XX asr boshlariga qadar tarjimachilik anʼanalari muayyan darajada saqlanib kelgan. Ayniqsa, Muhammad Rizo Ogahiyning tarjimachilik faoliyati alohida tadqiq etishga molik va bugunga qadar qator oʻzbek adabiyotshunoslari, tarjimashunos olimlari ayni masala atrofida tadqiqotlar oʻtkazib keladilar.

Oʻzbek tarjimachiligining zamonaviy bosqichi, manbaviy koʻlamining kengayishi, tizimlashuvi, nazariy bazalarining shakllanishi va takomillashuvi XX asr, xususan, oʻzbek jadidlari faoliyati bilan boshlanadi. Sovet davrida jadid mutarjimlari, rus va dunyo tarjimashunosligi tajribalari vositasida yangi oʻzbek tarjimachilik maktabi shakllandi. Ammo bu davr tarjima nazariyasi, badiiy oʻgirmachilik tajribalarining oʻzbek tarjimonlari tomonidan oʻrganilishi, oʻzlashtirilishiga muayyan imkon berganidan qatʼi nazar, tarjima obyektiga koʻlamining prinsipial maʼnoda chegaralashi jihatidan, milliy tarjimashunoslik maktabining oʻzini mukammal darajada namoyon etishiga imkon bermadi. Mustaqillik davriga kelib esa, oʻzbek tarjimonlarining tarjima manbalarini tanlash, saralash, kengaytirish va nazariy bazalarni milliy asosga qurish imkoniyatlari oshdi. Bu davrga kelib, jahon adabiyoti, ayniqsa, turkiy xalqlar adabiyoti namunalarini oʻzbek tiliga oʻgirish, targʻib va tashviq etish, keng koʻlamda tadqiq etish ishlari yangi bosqichga koʻtarildiki, ishning asosiy qismida shu haqda soʻz yuritimiz.

ASOSIY QISM

1. Oʻzbek tarjima maktabi va tarjimonlari

Yuqorida qayd etganimizdek, XX asr oʻzbek tarjimachilik maktabining shakllanishi milliy jadidlar ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maʼrifiy, adabiy-estetik faoliyati bilan chambarchas bogʻliq. Keyingi davrlarda shakllangan, aniq tizim va nazariy prinsiplariga ega boʻlgan oʻzbek tarjima nazariyasi va amaliyotining asos-asosida mana shu omil turadi.

Xo'sh, o'zbek jadidlarining tarjima ishlariga bu qadar jiddiy e'tibor qaratishi, tarjimachilikning faol harakatlarining muhim bir bo'lagiga aylantirishi, tarjimaning amaliy va nazariy jihatlarini ishlab chiqishlariga asosiy sabab nima edi.

Bizningcha, bu o'rinda birgina sabab emas, bir nechta muhim sabablar xususida so'z yuritish lozim bo'ladi. Birinchidan, jadid ziyolilari millatparvar, vatanparvar shaxslar o'laroq o'zbek millatining ma'rifati masalasini faoliyatlaridagi eng muhim vazifa deb bilardilar. Ikki buyuk Uyg'onish davrini boshdan kechirgan ushbu buyuk millatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy tanazzulga uchrayotganini ilk bor anglab yetgan va bunday tanazzulga chora-muolaja axtargan jadidlar faoliyatining tub mohiyatida millatni uyg'otish, uchinchi Renessansni amalga oshirish g'oyasi mujassam edi. Buning uchun esa o'zbek millati jahonda kechayotgan ijtimoiy-ma'naviy jarayonlar bilan tanishib borishi, baravar qadam tashlashi zarur edi. Ikkinchidan, bu tajriba milliy tariximizda ro'y bergan Renessans vakillari an'analarida mavjud edi. Imom al-Buxoriy, imom at-Termiziy, Burhoniddin al-Marg'iloniy, Muhammad al-Farg'oniy, Muhammad al-Xrazmiy, Ab-u Rayhon Beruniy, Mahmud al-Forobiy, Ab-u Ali ibn Sino, Abullays Samarqandiy, bulardan tashqari, yuzlab samarqandiylar, nasafiylar, termiziylar, farg'oniyalar, marg'iloniyalar, namangoniylar, buxoiylar, kasbaviylar faoliyatida bu jihat faol tarixiy-madaniy jarayon o'laroq kuzatiladi. Uchinchidan, G'arb Renessansi tajribalarida ham xuddi shu jihat yetakchi mavqe egallagan. Dante Aligeri, Franchesko Petrarka, Javanni Bokkachcho, Vilyam Shekspir, Kristofer Marlo, Jan Kalvin, Fransua Rable, Migel de Servantes, Lope de Vega, Martin Opis singari o'nlab G'arb Renessansi vakillari faoliyatida tarjima muhim o'rin tutgan va o'zbek jadidlari bu tajribalardan ham xabardor bo'lganlar. Xabardorgina bo'lib qolmay, ayni tajribalardan o'z faoliyatlari uchun muhim tarixiy vosita sifatida foydalanganlar. To'rtinchidan, XIX asr boshlaridan e'tiboran butun musulmon Sharqida kuzatiladigan umumsharq uyg'onishi, "yosh turklar", "yosh arablar", "yosh eronliklar", "yosh turkistonliklar" harakatlari dasturida ham o'zga madaniyatlarni bilish, bunda tarjimadan foydalanish degan yo'nalish mavjud edi. Beshinchidan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Is'hoqxon Ibrat, Siddiqiy-Ajziy, Abdulla Avloniy, Abdulla Badriy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, To'lagan Xo'jamiyrov Tavallo kabi jadidlarning aksariyati yozuvchi, shoir, dramaturg bo'lishlari bilan bir qatorda, ilmiy-adabiy, madaniy-ma'rifiy faoliyat bilan ham jiddiy shug'ullanganlar. Targ'ib-tashviq, millatni uyg'otishdan tashqari, tarjimachilikni o'z ilmiy-adabiy faoliyatlari uchun tayanch deb bilganlar. Maktab darsliklari, matbuot materiallari, ilmiy tadqiqotlar yozishda unumli foydalanganlar. Shu tariqa milliy adabiyotning zamonaviylashuvi, yangi estetikaning shakllanishini ta'minlaganlar. Umumsharq va Turkiston jadidchilik harakatining yirik tadqiqotchisi, o'zbek jadidshunosligi maktabining asoschisi professor Begali

Qosimov jadidlar faoliyat doirasi va uning maqsad-muddaosi haqida shunday yozadi: “Jadidchilik oqim emas, harakat. Ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy harakat. Yaqingacha ham u faqat ma’rifatchilik harakati deb kelindi. Bu ataylab qilingan edi. Maqsad – jadidchilikning doirasini toraytirish, sotsialistik, kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi. Aslida esa:

- 1) Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg‘onish mafkurasi bo‘lib xizmat qildi;
- 2) Mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g‘ayrat va tashabbusi bilan dunyo ko‘rgan Turkiston muxtoriyati bu yo‘ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi;
- 3) Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi.

Turkistondagi jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Rusiya musulmonlari, xususan, Kavkaz va Volga bo‘yida yoyilgan shu nomdagi taraqqiyparvarlik harakatining bevosita ta’siri va samarasi sifatida dunyoga keldi” (B.Qosimov. 2002: 6.). Milliy jadidchilik harakati, B.Qosimov haqli qayd etganidek, ijtimoiy-madaniy turmushning barcha jabhalarini qamrab oldi. Xususan, millat ijtimoiy turmushining ajralmas bir qismi bo‘lgan ma’naviyat, adabiyot, tarjimachilik ham jadidchilik harakatining muhim va ajralmas bir qismi edi. Jadidchilik harakati umumturk Uyg‘onishining universal asosi o‘laroq XX asr o‘zbek badiiy-estetik tafakkurining zamonaviy bosqichga ko‘tarilishida muhim rol o‘ynagan. Shu bois o‘zbek tarjimachiligining zamonaviy bosqichini jadidlar, xususan, XX asrning 20-30-yillarida olib borilgan milliy tarjimachilik faoliyatisiz tasavvur qilish mumkin emas.

XX asrning 20-yillarida o‘zbek tarjimachiligi maktab o‘laroq shakllandi desak, xato bo‘lmaydi. Bunda Yevropa adabiyoti, ayniqsa, rus adabiyoti klassiklarni asarlarining tarjima qilinishi jarayonlari muhim o‘rin tutadi. 1926-yili “Ma’orif va o‘qitg‘uchi” jurnalida rus adabiyotshunosi Kubikovning “Rusiyaning buyuk adiblari” degan maqolasi tarjima qilib, nashr etiladi (1926, №3: 32-34.). Maqolada rus shoirlari Aleksandr Sergeevich Pushkin, Mixail Yurevich Lermontov, buyuk yozuvchi va dramaturg Nikolay Vasilevich Gogol, otashqalb munaqqid Vissarion Georgiyevich Belinskiy ijodi, ijtimoiy-madaniy faoliyati haqida so‘z yuritilgan edi. Ko‘rinadiki, 20-yillar o‘zbek matbuoti o‘zining asosiy vazifasi bo‘lgan axborot kommunikatsiyasi bilangina emas, sof ilmiy va tarjimashunoslik faoliyati bilan ham shug‘ullangan. Ushbu ilmiy maqola tarjimasi o‘zbek ziyolilari va o‘quvchilari uchun tanishtiruv, targ‘ib vazifasini bajarishi bilan birga, ularni tarjima qilish va o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqni uyg‘otishga ham xizmat qilgan. Shu yillarda buyuk Cho‘lpon va Usmon Nosir Pushkin hamda Lermontov asarlarini qoyilmaqom qilib o‘zbekchalashtirganlari ma’lum. 1929-yilda Pushkining “Bekat nazoratchisi” nomli

hikoyasi Oston degan tarjimon tomonidan o'g'irilib, "Ma'orif va o'qitg'uchi" jurnalining 7-sonida chop etilgan (1929.). 1931 yilda esa lotin alifbosida, kitob shaklida nashr qilingan (Pushkin, 1931.). M.Yu.Lermontovning "Bahs" ("Spor") nomli she'ri 1923-yili Erkin taxallusli tarjimon tomonidan tarjima qilinib, "Ma'orif va o'qitg'uchi" jurnalida chop etilgan (1923: №11-12, 85-89). Bu she'r rus shoiri ijodidan o'zbek tiliga qilingan ilk tarjima edi. Shoirning "Qoya" ("Utes") she'ri 1925-yilda G'ozzi Olim Yunusov tomonidan ag'darilib, xuddi shu jurnal sahifalarida e'lon qilinadi (1925: №9, 72.). 1929-yili L.N.Tolstoyning "Uch darvesh" hikoyasi ilk bor o'zbekchaga o'girildi. "Alanga" jurnalida e'lon etildi (1929: №11, 22-24.). Ayniqsa keyinchalik maktab darsliklariga kiritilgan, o'zbek adabiyotining ajralmas bir bo'lagiga aylangan "Kavkaz asiri" hikoyasi Sanjar Siddiq tarjimasida, "Bazmdan so'ng" hikoyasi noma'lum tarjimon tarafidan o'g'irilib, alohida kitob holda, lotin alifbosi asosidagi o'zbek yozuvchida chop qilindi (1929.). Atoqli rus yozuvchisi Anton Pavlovich Chexov asarlari bilan ham o'zbek kitobxonlari XX asr 20-yillarining o'rtasida tanishdi. Dastlab "Yer yuzi" jurnali yozuvchining "Buqalamun" ("Xamelion") hikoyasini Saidg'ani Valiyev tarjimasida nashr etdi (1926). 1929-yilda esa Chexovning "Bebosh bola" ("Alanga" jurnali, 1929: №4) Yo'qsil Sharipov tomonidan, "Gul qiz" ("Alanga" jurnali, №6-7), "Shodlik" ("Alanga" jurnali, 1929: №8-9), "Qayg'u" ("Alanga" jurnali, №8-9) asarlari Hamid Olimjon (Uchqun taxallusi bilan) tarjimasida nashr qilindi. G'ozzi Yunus I.A.Kirilov masallarini o'zbekchaga o'g'irib, "Maymun va ko'zoynak" nomi bilan nashr ettirdi (O'zdavnashr, 1921). Ayniqsa, N.V.Gogol asarlari 20-yillar o'zbek kitobxonlarida katta qiziqish uyg'otdi. Uning mashhur "Revizor"i 10-yillardayoq o'zbek teatri uchun tarjima qilinib, sahnalashtirildi. 20-yillarning o'rtalarida "Uylanish" asari o'zbek sahnasidan joy oldi (Qoriniyozov T.N. 1956.). Bu Gogol asarlarining teatr ssenariysi uchun o'g'irilgan variantlari edi. Gogolning ilk badiiy tarjimasini Saidahmad Siddiqiy-Ajziy tomonidan amalga oshirilgan. Asar "Ma'orif va o'qitg'uchi" jurnalida chop etilgan (1925:№10-11-12.). Ivan Sergeevich Turgenevning asarlari 1925-yillardayoq ilk bora tarjima qilingan. 20-yillarning faol tarjimonlaridan Mahmud Suobiy yozuvchining biryo'la ikkita she'riy proza yo'lida yozilgan asarini o'g'irdi. Bu asarlar "Tilanchi" va "Bo'sag'a" nomi bilan "Ma'orif va o'qitg'uchi" jurnalida chop qilingan (1925: №11-12.). 1929-yilda Abdulhamid Cho'lpon yozuvchining "Pyotr Petrovich Karatayev" nomli salmoqdor hikoyasini o'zbekchalashtirgan. Asar "Cho'ri qiz (Krepostnaya)" sarlavhasi ostida, lotin alifbosida "O'znashr" nashriyotida bosmadan chiqqan (Turgenev, 1929.). Sanalganlar bilan bir qatorda 20-yillarda ijod etgan o'zbek tarjimonlari M.Gorkiy, A.Kuprin, A.Mixaylov, S.Pokrovskiy, Ya.Aleksandrova, P.Topikov, M.Zoshenko, K.Levin, R.Asvirchikov, Gaydovskiy, Gostev, A.Neverov kabi ijodkorlar asarlarini ham tarjima qilganlar.

Ma'lum bo'lyaptiki, hali XX asrning 20-yillaridayoq o'zbek milliy tarjimashunosligi keng ko'lamdagi ishlarni amalga oshirgan. O'zbek tarjimachilik maktabining tamal toshini qo'yishga ulgurgan. Albatta, u davrdagi tarjimalarning barchasi ham yuqori badiiy saviyada bo'lmagan. Buning sababi esa, xorij adabiyoti namunalarini maqsadli tarzda ommalashtirish, o'zbek o'quvchilari dunyoqarashi, badiiy saviyasini yangilash, yuksaltirish bo'lgan. Ko'p hollarda nashriyotlar, matbuot nashrlari tomonidan bu borada buyurtmalar berilgan. Rus va boshqa xorij tillarini biladigan badiiy mutaxassislar, yozuvchi, shoir, dramaturglar yetishmagani sababidan til biladigan, ammo mutaxassis bo'lmagan kishilar ham bu ishga jalb etilgan. Ayni paytda, Saidahmad Siddiqiy, Xislat, Cho'lpon, Usmon Nosir singari yetuk iste'dod egalari shunday tarjimalarni amalga oshirganlarki, ularning qimmatini bugungacha saqlanib qolgan.

20-30-yillar va undan keyingi davr o'zbek badiiy tarjimachiligi sohasida o'z tarjimonlik iste'dodini namoyon etgan o'ziga xos tarjimonlar ham yetishib chiqqan. Buning yorqin misoli Sanjar Siddiqning tarjimonlik faoliyatidir. Tadqiqotchilar S.Siddiq haqida shunday yozadilar: "20-30-yillar o'zbek matbuoti va adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan Sanjar Siddiq (Bosit Siddiqov) tarjimon va tarjimashunosgina bo'lib qolmay, iste'dodli jurnalist, pedagog, san'atshunos va teatrshunos ham edi.

Yoshligidan mutolaaga, til o'rganishga havasmand bo'lgan Sanjar Siddiqning (u 1902-yilda Toshkentning Saqichmon mahallasida tug'ilgan) rus tilini puxta egallaganligi, ingliz, nemis va tojik tillaridan durustgina xabardor bo'lgani ma'lum. Sanjar Siddiqni ko'rganlar, hamsuhbat bo'lganlar u haqda faxrlanib so'zlaydilar. Uni "o'z davrining qomusiy olimi edi", deyishadi" (Nahanov O. 1973: 117.). Shuningdek, S.Siddiq "Gamlet", "Musofirxona bekasi" kabi jahon adabiyoti namunalari haqida, sahna amaliyoti va teatr tanqidchiligi, tarjimachilikning nazariy muammolari bo'yicha qator ishlar yozgan. O'zigacha bo'lgan tarjimonlardan farqli o'laroq S.Siddiq tarjima ishini professional darajaga ko'tara olgan, yirik jahon adiblarining yirik asarlarini tarjima qilgan mutaxassisdir. Uning tarjima bisotidan Lev Tolstoy, Ubayd Zakoniy, Lengston Xyuz, M.Yu.Lermontov, N.Y.Gogol asarlaridan qilingan tarjimalar o'rin olgan. Milliy tarjimachilik rivojiga xizmat qilishi nuqtayi nazaridan Sanjar Siddiq A'zam Ayyub, Saidg'ani Valiyev, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Elbek, Usmon Nosir, Hamid Olimjon, Royiqlar qatorida turadi. "O'zbek tarjimachiligining shakllanish jarayonini jiddiy va sinchkovlik bilan kuzatib borgan Sanjar Siddiq asl nusxa tili bilan tarjima tili tafovut bo'lmasligi (yozuvchi uslubiga putur yetkazmaslik), asl nusxa ruhini tarjimada ham saqlash uchun yoki har bir badiiy asarning tarjimasini omma tushuna oladigan sodda va ravshan til bilan "jaranglashi" uchun kurashgan" (Nahanov O. 1973: 117.). S.Siddiqning "Adabiy tarjima san'ati" kitobi (Siddiq S., O'zSSR Davlat nashriyoti,

1936), “Odam tushunmaydigan soʻzlar va oson tilda yozish toʻgʻrisida” (Siddiq S. “Qizil Oʻzbekiston” gazetasi, 1935: 4-mart), “Adabiy tarjima asoslari” (Siddiq S. “Kitob va inqilob” jurnali, 1932: 3-son, 30-38), “Sahnada til” (Siddiq S. “Qizil Oʻzbekiston” gazetasi, 1935: 9-mart), “Musofirxona bekasi” (Siddiq S. “Qizil Oʻzbekiston” gazetasi, 1934: 24-iyun) nomli maqolalarida tarjimashunoslik nazariyasining dolzarb muammolari haqida soʻz yuritadi. Mazkur asarlarida badiiy adabiyotning har uch turiga doir asarlar, ularning tili, ritmi, poetik ruhiyati xususida salmoqli fikrlar bildiriladi. Harakatdagi tarjimachilik jarayoniga ilmiy munosabat bildirilishi bilan birga, tarjima nazariyasiga doir fikrlar ilgari suriladi. Muhimi, S.Siddiqning bunday qimmatli xulosalari bevosita tarjima amaliyoti bilan bogʻliq.

S.Siddiqning “Kavkaz asiri” (Tolstoy L.N., OʻzSSR Davlat nashriyoti, 1937), “Tergovchi (Revizor)” (Gogol N.V., OʻzSSR Davlat nashriyoti, 1937) asarlari tarjimasini kitob holida nashr etilgan. Bu tarjimalardan hali-hamon maktab va oliy oʻquv yurtlari darsliklarida, xrestomatiyalarda foydalaniladi. XIV asrda yashab ijod etgan fors shoiri Ubayd Zakoniyning “Mush va Gurba” (“Mushuk va sichqon”) nomli sheʼriy asari “Lenin uchquni” gazetasining bir nechta sonlarida “Mushuk va sichqon qissasi nomi bilan” chop qilingan (Zakoniyy Ubayd, 1936: 9, 12, 15, 16 fevr.). Bu tarjimaning ahamiyati shundaki, bu tarjima S.Siddiqdan ancha oldin (1871-yili) shoir Xislat qilgan oʻgirmadan farq qilarmoq, bolalar ruhiyati va yosh psixologiyasiga moslangan edi. Tarjimonning nasriy va dramatik asarlar tarjimasini ham oʻzbek tilining lugʻaviy hamda badiiy boyligini namoyish etishi, original ritmi, mazmuni va poetik ruhini saqlab qolgani bilan muhimdir.

Ayni anʼanalar sobiq sovet ittifoqining eng gullagan davri XX asrning 40-yillaridan 80-yillarning ikkinchi yarmiga qadar izchil tarzda davom etdi. Bu davr oʻzbek tarjimachiligi uch yoʻnalishda professional darajani qoʻlga kiritdi:

- a) tarjima amaliyoti;
- b) tarjima nazariyasi;
- v) tarjimashunoslik.

Musa Toshmuhammad oʻgʻli Oybek, Gʻafur Gʻulom, Maqsud Shayxzoda, Abdulla Qahhor, Mirzakalon Ismoilov, Gʻ. Alimuhamedov, Rustam Abdurahmonov, Madamin Ibrohimov, Vahob Roʻzmatov, Mamarasul Boboyev, Mirtemir, Hamid Gʻulom, Asqad Muxtor, Mirziyod Mirzoidov singari qator tarjimonlar yetishib chiqdi. Ularning tarjimonlik faoliyatlari orqasida oʻzbek kitobxonlari Yevropaning eng yetuk ijodkorlari asarlari bilan tanishdilar. Oybek Rim adabiyoti namunalari bilan parchalar tarjima qilishi bilan birga, mashhur Plavtning “Xumcha” komediyasini mahorat bilan oʻgirdi. Gʻafur Gʻulom Shekspir asarlarini tarjima qildi. Jahon xalqlarining deyarli barcha tillariga oʻgirilgan “Gamlet”ni oʻzbek kitobxonlari xazinasiga aylantirdi. M.Shayxzoda tomonidan amalga oshirilgan Lermontovning “Kavkaz asiri”, “Ikki asira” sheʼrlari oʻz davrida voqea boʻldi desak, xato

qilmaymiz. Abdulla Qahhor esa A.P.Chexov hikoyachilik an'analarini o'zbek nasriga olib kirishi bilan birga, uning qator asarlarini o'zbek millati adabiy-ma'naviy xazinasiga aylantirdi. Lev Tolstoyning katta epik turda yozilgan asari "Urush va tinchlik"ni o'zbekchaga ag'dardi. Xalq tilining zakiy bilimdoni, tom ma'nodagi xalq shoiri Mirtemir esa o'ta ulkan ishga qo'l urdi. Qirg'iz xalq qahramonlik eposi "Manas"ni o'zbek kitobxonlariga taqdim etdi. G'.Alimuhamedov Gogolning sof kazakcha ruhiyat ufurib turgan "Dikanka qishlog'i hangomalari" asarini xalqona tilda qayta jonlantirdi. Mirzakalon Ismoiliy badiiy nasr yo'lidagi izlanishlarini "Anna Karenina" tarjimasiga boyitdi. Asar tarjimasiga uzoq vaqt sarflab, o'zbek o'quvchisiga Tolstoy badiiyatining jozibasini anglatdi. Rustam Abdurahmonov boshqa qator tarjimalari orasida yaqqol ajralib, nur sochib turadigan I.S.Turgenev "Ovchining maktublari" romani tarjimasiga qo'l urdi. O'z niyatini mahorat bilan amalga oshirdi. Asardagi monologik ruh, chuqur psixologizmni o'zbek tilida berishga erishdi. Vahob Ro'zmatovning tarjimonlik faoliyati ham o'ziga xos bo'lib, milliy tarjimachilik maktabi takomilida alohida o'rin tutadi. U M.Sholoxovning "Ochilgan qo'riq" romanini mahorat bilan o'zbekchaga o'g'irgan. Tadqiqotchilar tarjimonning xalq tilini bilish va qo'llash mahoratini alohida ta'kidlaydilar (Tarjima san'ati. Mualliflar jamoasi. 1973: 53). Mamarasul Boboyev tarjimalari o'zining muhimligi, mahorat bilan o'girilgani bilan birga, bevosita turkiy adabiyot vakillari ijod namunasiga yo'naltirilgani bilan ahamiyatlidir. U Muso Jalilning mashhur "Maobit turmasi" asarini mahorat bilan o'zbekchalashtirgan. So'ng M. Lermontov "Demon"ini tarjima qilgan. Yozuvchi Hamid G'ulom ham bu an'anani izchil davom ettirdi M.Lermontovning o'zbek o'quvchisida yuksak badiiy taassurot uyg'ota olgan "Msiri"sini milliy badiiyat xazinamiz tarkibiga qo'shgan. Asqad Muxtor esa shoirning "Qochqin" asarini o'zbekchaga o'g'irgan. Sovet davri tarjimonlaridan Mirziyod Mirzoidovning ham o'zbek tarjima maktabi ravnaqi uchun qo'shgan hissasi kam emas. Tarjimanning, ayniqsa, badiiy tarjima saviyasi, 20-40-yillarda amalga oshirilgan tarjimalarga xos muayyan noqisliklarni o'nglash, qayta tarjima qilish yo'lidagi xizmatlari tadqiqotchilar tomonidan alohida ta'kidlanadi: "Katta ijtimoiy-estetik maqsadga bo'ysundirilgan badiiy tarjima, uni amalga oshirayotgan adabiyot rivojiga samarali ijobiy ta'sir o'tkazadi. Rus klassik va sovet adabiyotidan, jahon adabiyotidan qilingan eng yaxshi tarjimalar o'zbek sovet she'riyati, nasri, dramaturgiyasi, tanqidchiligi taraqqiyotiga qo'shgan hissaning naziri yo'q. Shekspir, Pushkin, Lermontov, Nekrasov asarlari tarjimalarining har biri she'riyatimiz tarixidagi muayyan davrdir. Lev Tolstoy, Gogol, Chexov, Turgenev, Ostrovskiy, Dostoyevskiy, Daniel Defo, Mark Tven, Sholoxov, Tagor, Hemenguey kabi ulug' adiblar asarlari tarjimalari nasrimiz solnomasidagi alohida-alohida boblardir. Agar bugungi kunda nomlari zikr etilgan ulug' adiblar qalamiga mansub bir qator shoh asarlarni o'zbek tiliga qaytadan tarjima qilish ehtiyoji tug'ilgan

bo'lsa, buning boisi, o'tgan davr ichida ijtimoiy-ma'naviy saviyaning beto'xtov o'sib kelayotganidir. Zero, tarjima ba'zi paytlar asl nusxa kamolidan ko'ra, tarjimonning yoki uni shakllantirgan adabiy muhitning saviyasini muayyanroq ifodalaydi" (kursiv bizniki. – U.J.) (Qo'shmoqov M. Tarjima san'ati, 1978: 302.). Mirziyod Mirzoidov sovet davri o'zbek tarjimonlari orasida aynan shu jihatlari: tarjima badiiyatini takomillashtirish, xalq tiliga yaqinlashtirish, obrazlar xarakterining nozik qirralarini ochib berishga astoydil harakat qilgani bilan ajralib turadi. U Ilf va Petrovlarning ma'lum-u mashhur "Oltin buzoq" hamda "O'n ikki stul" romanlarini tarjima etishda mana shu jihatlarga alohida e'tibor qaratgan. Tarjima mahoratining bu kabi faziatlarini tarjimonning "Olg'a, o'rtoqlar, mardona" (V.Vasilev), "Tehron" (Sevuns), "Nomus", "Xusumat" (A.Shirvonzoda. Eron), "G'oliblar himmati" (S.Shlyaxun), "Andreas fojiasi" (P.Kusberg), "Qo'rqqoq" (L.Nikulin), "Fig'on" (Sh.Siddiqiy. Pokiston), "Hasad" (L.Rebryanu. Ruminya) kabi o'nlab tarjimalarida o'z aksini topgan.

O'zbek tarjimachiligi amaliyotida ingliz Renessans adabiyotining yirik vakili Vilyam Shekspir tarjimalari o'ziga xos ahamiyatga ega. Shu o'rinda sovet davri o'zbek tarjimachiligida G'arb adabiyoti namunalarini tarjima qilishda ba'zi muammolar ham ko'zga tashlanganini qayd etish joiz. Bularning birinchisi, tarjimonlar orasida Yevropa tillari, xususan, ingliz tilini bilmaslik, ingliz tilini biladiganlar ko'p bo'lishiga qaramasdan, aynan shu biladiganlarda tarjimonlik mahoratining yetishmovchiligi; ikkinchisi, "podstrochnik" asosida tarjima qilishning texnik va ijodiy muammolari. Bu haqda E.S.Aznaurova shunday yozadi: "Tarjimachilik ishining tashkil qilinishi borasida katta yutuqlar bilan birga, jiddiy kamchiliklar ham mavjud. Chunonchi milliy tillardan rus tiliga va G'arbiy Yevropa tillaridan milliy tillarga tarjima qilish praktikasida hozirga qadar jiddiy nuqsonlarga yo'l qo'yib kelinmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri shuki, qardosh respublikalar adabiyotlaridan tarjima qiluvchi tarjimonlarimizning ko'pchiligi original tilni, ya'ni o'sha respublikalarning milliy tillarini, milliy tillarda ijod qiluvchi tarjimonlar esa G'arbiy Yevropa tillarini bilmaydilar.

Olmishinchi yillardayoq podstrochnik orqali tarjima qilish muammosi badiiy tarjima masalalari bo'yicha o'tkazib turilgan yig'in va kengashlarda jiddiy munozaralarga sabab bo'lgan edi. Qirqinchi yillarda tug'ilgan bu muammo atrofida shu qadar ko'p gap-so'z bo'ldiki, podstrochnik orqali tarjima qilish tajribasining muxoliflari asarlarni bunday yo'l bilan ag'darayotgan mutarjimlarga nisbatan "jiddiy chora" ko'rishni talab qilsalar, podstrochnik orqali tarjima qilish tarafdorlarining ham jiddiy da'vo-dalillari bor edi" (Tarjima san'ati. Aznaurova E.S. 1973: 213-214). V.Shekspirning dastlabki o'zbekcha tarjimalari ham rus tili orqali amalga oshirilgan. Asarning ruscha tarjimasi muallifi mashhur shoir Bors Pasternak. Ulkan shoir, dramaturg, adabiyotshunos va tarjimon Maqsud Shayxzoda

Shekspirning mashhur “Hamlet” tragediyasini rus tili vositasida bo‘lsa ham o‘ta mahorat va jo‘shqinlik bilan o‘zbek tiliga o‘g‘irgan (V.Shekspir. Hamlet. Daniya shahzodasi. Rus tilidan Maqsud Shayxzoda tarjimasini. – T., 1948). “Maqsud Shayxzoda shekspirona yuksak dabdabali uslub maqomiga muqobil tarjima qilish maqsadida tilning shunday hissiy kechinmalarni aks ettirishga muvofiq keladigan lug‘atidan foydalanadi, *dilozor, falak, tahqir* kabi so‘zlar vositasi bilan kitobxonning Hamletni hayajonlantirib turgan mushkul falsafiy-axloqiy mavzu ichiga chuqurroq kirib borishiga ko‘maklashadi”, deb yozadi bu haqda E.Aznaurova (kursiv muallifnisi – U.J.) (Aznaurova, 1973: 218). Shekspirning “Qirol Lir” tragediyasi o‘zbekning katta shoiri, o‘ziga xos talant egasi G‘afur G‘ulom tomonidan o‘girilgan (V.Shekspir. Pesalar. – T., 1960). Ruscha tarjimon muallifi Shchepkina-Kupernik (V.Shespir. Korol Lir. – M-L., 1942). Ingliz klassik tili imkoniyatlarini yaxshi bilgan E.Aznaurova Shchepkina-Kupernik tarjimalaridagi bir qator xatoliklar G‘.G‘ulom tarjimasida ham takrorlangani, ayniqsa bu jihat asardagi Masxara obrazi tilini ifodalarda ko‘proq uchrashini qayd etgan bo‘lsa ham, G‘.G‘ulom tarjimasining asosiy muvaffaqiyati xalq tili imkoniyatlaridan foydalanganida ekanini to‘g‘ri ta’kidlaydi. To‘g‘ri “Qirol Lir”dagi Masxara o‘ta murakkab obraz. Uning nutqi ingliz xalq maydon kulgi madaniyatining tipik namunasi. Bu nutqning Shekspir davri bilan bog‘liqligi uni to‘g‘ri anglash hatto zamonaviy inglizlarga ham qiyinchilik tug‘dirishini ko‘rsatadi. G‘.G‘ulom vosita til orqali bo‘lsa-da, Shekspirga xos kinoya, qochirim, mutoyiba va latiflikni teran his etgan. Buni o‘zbek tilining xalqona imkoniyatlaridan foydalanib, g‘afurona komizm bilan boyitgan. Natijada o‘zbek o‘quvchisi “Qirol Lir”dagi Lir, Kent, Kordeliya, Gonereliya, Regana obrazlari nutqini, ayniqsa, Masxara so‘zlarini milliy obrazlar tilini qabul qilgandek, bajonudil qabul qilgan.

Turkiy xalqlardan qilingan tarjimalar ham bu davr o‘zbek tarjimashunosligida alohida o‘rin tutadi. Yuqorida boshqird shoiri Musa Jalilning “Maobit qo‘rg‘oni” asari tarjimasini eslab o‘tdik. Bu va bunga o‘xshash tarjimalar o‘zbek xalqining qondosh turkiy xalqlar adabiyoti bilan izchil ravishda tanishib, yaqinlashib borishini ta’min etgan. XX asrning 60-yillarida ozarbayjon, qirg‘iz, qozoq, tatar, boshqird adabiyotidan qator tarjimalar amalga oshirildi. Qirg‘iz shoirlari To‘qtag‘ul Sotilg‘anov, To‘g‘alov Mo‘lda (Boyimbet Abdurahmonov)lar esa Navoiy asarlarini xalqona tilda o‘girib, ovullarda kuylab yurganlari haqida mutaxassislar ma’lumot beradilar (Tarjima san’ati. Orzibekov R., A.Abdurahmonov A. 1973: 183).

Qozoq shoiri Jambul Jabayevning “Tanlangan asarlar”i hali 1947-yildayoq o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Muxtor Avezov, Sobit Muqanov, Abdulla Tojiboyev singari qozoq shoir va yozuvchilari shu yillardan boshlab, Alisher Navoiy g‘azallarini o‘z tillariga tarjima qilishgan. M.Avezovning “Abay” epopeyasi bilan o‘zbek kitobxonlari 60-yillarda tanishgan. Shuningdek G‘.Mustafining “Qarag‘anda”,

S.Muqanovning “Bo‘tako‘z”, “Hayot maktabi” romanlari, S.Begalining “Satjon”, J.Siddiqovning “Oltin qalam” qissalari o‘zbek tilida nashr etilgan. “Qozoq hikoyalari”, “Qozoq shoirlari” to‘plamlari esa o‘ttizdan ortiq muallif asarlarini o‘z ichiga oladi. “O‘zbekiston madaniyati” gazetasida chop etilgan S.Muqanovning ushbu fikrlari bu ikki qardosh xalq o‘rtasidagi adabiy aloqalar ko‘lami va darajasini ko‘rsatadi: “Hamza bilan Seken Sayfullin, Avezov bilan Oybek, Musrepov bilan Rashidov, G‘afur G‘ulom bilan Toir Jaroqov, Abdulla Tojiboyev bilan Abdulla Qahhor, Uyg‘un bilan G‘ali O‘rmonov, Zulfiya bilan Maryam Hakimjonova va boshqalarning asarlarini bir-biriga qiyos qilar ekanmiz, o‘zaro ta’sir naqadar kuchli ekanini yaqqol his etamiz” (Muqanov S. “O‘zbekiston madaniyati”, 1960, 10 sent.). 1929-yildayoq Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani ozarbayjon tiliga o‘girilgan. 1923-24-yillarda ozarbayjon hajvchi shoiri Aliakbar Sobirning qator she‘rlari G‘.G‘ulom, Sobir Abdulla, Xurshidlar tomonidan tarjima etilib, “Mushtum” jurnali sahifalarida chop qilingan. 40-50-yillarda Navoiy asarlari ozarbayjon tiliga o‘girildi. Ayni paytda ozarbayjon tilida “O‘zbek adabiyoti antologiyasi”, “O‘zbek she‘rlari”, “O‘zbek kitoblari” to‘plamlari nashr etilgan. Oybekning “Qutlug‘ qon”, Sh.Rashidovning “Bo‘rondan kuchli”, A.Qahhorning “Qo‘chinor chiroqlari” romanlari ozarbayjon tiliga o‘girilgan. Keyinroq, xususan, mustaqillik davrida qirg‘iz adabiyotining yetuk vakili Chingiz Aytmatov asarlarining aksariyati o‘zbekchaga o‘girildi. Bolqor shoiri Qaysin Quliyev va dog‘istonlik shoir Rasul Hamzatovlar ijodi ham o‘zbek tarjimonlari va kitobxonlarini ko‘pdan qiziqtirib keladi. Q.Quliyevning o‘zbek shoiri Sayyor tomonidan tarjima qilingan “Yaralangan tosh”, “Hayajonda yashab...”, “Ishonch” she‘rlari, ayni paytda Gulchehra Jo‘rayeva, Shukrullo, To‘lqinlar qalamiga mansub tarjimalar o‘zbek o‘quvchilari tomonidan bugun ham sevib mutolaa qilinadi.

O‘zbek tarjimachilik maktabi an‘analari, qardosh turkiy va xorij adabiyoti tarjimasini yo‘lidagi amaliy tajribalar XX asr 90-yillaridan keyin yangilangan, takomillashgan shaklda davom etdi. Muayyan ma’noda rivojlandiki, ishning keyingi bo‘limlarida hali bu haqda alohida to‘xtalamiz.

2. O‘zbek tarjimashunosligining nazariy muammolari

O‘zbek tilidan boshqa xalqlar tiliga, turkiy xalqlar adabiyoti, rus va xorij adabiyotidan o‘zbek tiliga qilingan tarjima jarayonlari, amaliy tajribalar, tarjima manbalari ko‘lami milliy tarjimashunoslik yo‘nalishining maydonga kelishida zamin bo‘lib xizmat qildi. Albatta, tarjima amaliyotining o‘zi kabi tarjimashunoslik masalalari ham o‘zbek xalqi badiiy tafakkuri tarixining olis davrlariga borib bog‘lanadi. Biryola arab, fors va turkiy tillarda ijod qilgan o‘zbek mutafakkirlari, adib va olimlari o‘sha davrlardayoq tarjimashunoslikka doir fikr-qarashlari, xulosalarini yozib qoldirganlar. Ayni paytda, professional tarjimashunoslik ilmiga XX asrning 10-30-yillarida jadid ziyolilari tomonidan tamal toshi qo‘yilgan bo‘lsa,

40-80-yillarda bu soha mustaqil ilmiy yoʻnalishga aylandi. Bu ishga Gʻafur Gʻulom, Oybek, Komil Yashin, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor singari oʻzbekning atoqli adiblari munosib hissa qoʻshganlaridek, tarjima jarayonlari, manbalar bilan ishlash prinsiplarini shakllantirish zarurati oʻnlab oʻzbek tarjimashunoslari, tarjima nazariyotchilarining yetishib chiqishiga olib keldi.

V.Zohidov, Gʻ.Karimov, S.Shermuhamedov, Sh.Shomuhamedov, Gʻ.Salomov, J.Sharipov, M.Rasuliy, E.Aznaurova, D.Gʻulomova, O.Nahanov, N.Komilov, T.Joʻrayev, M.Qoʻshmoqov, S.Salomova, Z.Umarbekova, A.Abdudzizov, R.Orzibekov, A.Umarov, N.Vladimirova, M.Rasuliy, M.Qoʻshmoqov, T.Qahhorov, G.Gʻafurova, N.Muhammadiyev, R.Fayzullayeva, E.Muhammedov, O.Neʼmatov, R.Karimov, A.Iminov, Q.Musayev, M.Sulaymonov, S.Ochilov, N.Otajonov, V.Rahmonov, J.Kamol, M.Muhiddinov, M.Hazratqulov, B.Doʻstqorayev, P.Mirzaahmedova, Ya.Egamova, S.Ochilov, S.Meliyev, M.Sharafiddinova, Z.Isomiddinov, Sh.Otaboyev, M.Xolbekov kabi qator oʻzbek tarjimashunoslari borki, ularning alohida yoki jamoaviy toʻplamlarda chop etilgan tadqiqotlarida oʻzbek tarjimashunosligi jarayoni, ayni paytda, tarjima nazariyasi muammolari ham oʻz aksini topgan.

Taʼkidlanganidek, tarjimashunoslik masalalari haqida soʻz yuritgan oʻzbek yozuvchilari K.Yashin, A.Qahhor, A.Muxtor va boshqalarning maqolalari, tadqiqotlariga xos xarakterli jihat shundaki, ular oʻz davrlari uchun dolzarb, ogʻriqli muammolarga javob izlash bilan birga, oʻz tarjimachilik malakalari bilan ham oʻrtoqlashadilar. Nazariy umumlashmalarga daʼvo qilmasalar-da, yosh tarjimonlarga yoʻl koʻrsatadilar, tarjimada suyagi qotgan tarjimonlar ishiga munosabat bildiradilar. Masalan, yozuvchi A.Qahhor “tarjimachilik tashvishlari” degan maqolasida oʻzbekchadan ruschaga, ruschadan oʻzbekchaga qilinayotgan tarjimalar jarayonidagi “podstrochnik”dan foydalanish masalasida bahs yuritadi. “Podstrochnikchi” boʻlib ishlayotgan, qalam haqqi olayotgan mutaxassislarining saviyasiga asosiy eʼtiborini qaratadi. Uning fikricha, til biluvchi mutaxassislarining adabiyotdan, adabiyotdan xabari borlarning tildan zaifligi mavjud ekan “podstrochnik”ka doimo ehtiyoj boʻladi. Shunday ekan, podstrochnikdan voz kechib milliy oʻquvchilarni jahon adabiyoti durdonalaridan mahrum qilishdan koʻra, podstrochnik vositasida boʻlsa ham tarjima ishlarini toʻxtatmaslik kerak. Faqat podstrochnik bilan shugʻullanuvchilarning qanday mutaxassis ekanini nazorat qilish, istalgan tilbilgichga bu vazifani ishonavermaslik lozim. “Podstrochnikni elektr simiga oʻxshatish mumkin. Sim qanday metallardan qilinganiga qarab elektr tokini ham har xil oʻtkazadi. Xuddi shunga oʻxshash podstrochnik ham uni kim va qanday qilganiga qarab, asl nusxaning mazmunini yomon, oʻrta, yaxshi, yoki aʼlo darajada berishi mumkin”, deb yozadi bu haqda A.Qahhor (Tarjima sanʼati. 1973: 9.). K.Yashin esa “Tarjima choʻqqisini egallaylik” degan maqolasida tarjima

ishlarini tashkil etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, o'zbek tilidan ukrain tiliga qilingan tarjimalar, mutaxassislar bilan bog'liq muammolar to'g'risida gapiradi. Buning uchun turli millatlarga mansub tarjimon, tarjimashunos, adabiyotshunoslarning muntazam aloqada bo'lib turishlari lozimligini alohida ta'kidlaydi.

Tarjimashunoslikning ilmiy-nazariy muammolari, tarjima kriteriyalari haqidagi ishlar ham bu davr manbalarida o'z aksini topgan. O.Nahanov S.Siddiq tarjimalari, tarjimashunoslikka doir asarlarini o'rganib, uning amaliy-nazariy tajribalarini umumlashtiradi. Natijada S.Siddiq ishlab chiqqan tarjima nazariyasiga doir beshta kriteriyani taqdim etadi:

1. Tarjimon tajriba va malaka hosil qilgan bo'lishi, har bir tilning o'ziga xos alohida qoidalariga, xususiyatlarga ega ekanligi, shuningdek, tarjimachilikning ham aniq qoida va qonunlari borligini bilishi lozim.

2. Tarjimon o'zi tarjima qilayotgan asar uslubini saqlashi shart. Asardagi obraz va personajlarning nutq uslubi bilan yozuvchining o'z badiiy uslubini farqlay bilishi va o'zi "hazm" eta olmagan mavzularni tarjima qilishga urinmasligi kerak.

3. Tarjimon o'zi tarjima qilayotgan asar muallifining ijodiy yordamchisi, ish sherigi bo'lib, u aytmoqchi bo'lgan g'oyaviy maqsadni o'z tilida to'la va puxta yaratishi, o'zini muallif bilan bir qatorda asar uchun mas'ul sanashi, tarjima – asarning boshqa tillardagi to'liq nusxasi ekanligini unutmasligi zarur.

4. Tarjimon so'zga boy bo'lishi, har qaysi so'zni o'z o'rnida to'g'ri va tushunib ishlata bilishi, so'z va ma'no farqiga jiddiy e'tibor bermog'i, so'zlardan ko'ra ko'proq jumlar bilan ish tutmog'i kerak. Gapda so'z tartibi, ya'ni so'zlarning terilish tartibiga va so'z tartibining har tilda o'ziga xoslik kasb etishi lozimligini yaxshi bilish lozim.

5. Tarjimon har bir tilchi, adabiyotchi, lug'atchi bilan bir qatorda, omma o'rtasida iste'molda bo'lgan, xalq orasida ishlatilib yurgan ayrim lug'atlar, jonli ta'birlar, tasviriy iboralar, obrazli so'z va tarkiblarni, maqol va hikmatlarni to'plamog'i hamda ularning ma'nolarini, ekvivalenti (muqobillari) ni topib qayd etib bormog'i kerak (Nahanov O. Tarjima san'ati. 1973: 121-122.). Ma'lum bo'ladiki, hali XX asr 20-yillaridayoq o'zbek tarjimashunosligi muayyan ilmiy konsepsiya, amaliy tajribalar umumlashmasi, nazariy kriteriyalarga ega bo'lgan. Muhimi bunday muhim nazariy xulosalar bevosita amaliy faoliyatning natijasi o'laroq taqdim etilgan. Bunday manbalar ko'lamida esa faqat bir til doirasidan qilingan tarjimalar bilan cheklanmagan, balki arab, turk, fors kabi umumsharq, rus va Yevropa singari xorij adabiyotlaridan qilingan tarjima asarlar asosida chiqarilgan.

Tarjimashunoslik va tarjima nazariyasiga doir amaliy-nazariy, badiiy-estetik muammolarini umumlashtirish, yangi ilmiy mezonlar, amaliyotga doir tarjima kanonlarini ishlab chiqish, ayniqsa, 60-70-yillar o'zbek ilmiy-adabiy muhitida

o‘zining yangi, samarali bosqichiga chiqqan. Xususan, o‘zbek tarjimashunoslik ilmining yirik namoyandasi, o‘nlab tarjimon va tarjimashunoslar ustози, nazariyotchi olim G‘aybulla Salomov (G‘aybulloh as-Salom)ning “Badiiy tarjima haqida o‘y va mulohazalar” nomli tadqiqoti misolida o‘zbek tarjimashunosligining yangi bosqichiga xos xususiyatlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Badiiy tarjimaning dolzarbligi va ilmiy-ma‘rifiy ahamiyati haqidagi G‘.Salomov fikrlari ushbu xulosamizni to‘la tasdiqlashi bilan birga, 70-yillar o‘zbek tarjimashunosligi ko‘lami, saviyasi va professionallik darajasini ko‘rsatadi: “Badiiy tarjimaning hayotimizdagi tarbiyaviy, siyosiy, g‘oyaviy va estetik ahamiyati, ma‘rifatparvarlik roli yil sayin oshib boraveradi. Buning natijasida muqarrar badiiy tarjimaga katta va jiddiy ijodiy ish deb qarashga va bu sohada ba‘zan yuz berayotgan o‘zbo‘larchilik tendensiyasiga uzil-kesil zarba berishga, *ijodiy mahsulotning badiiy sifati va ilmiy saviyasini ko‘rsatish yo‘lida ulkan amaliy tadbirlarni amalga oshirishga to‘g‘ri keladi*” (kursiv bizniki – U.J.), (Salomov, 1973: 51.). Olimning to‘xtamiga ko‘ra, 70-yillarga kelib, tarjima asarining tushunarligi, soddaligi yaxshi tarjima mezonini bo‘lish darajasidan quyiga tushgan. Bu bilan tarjima asari o‘quvchisining estetik talabi qonmaydi. Aksincha, bunday “tushunarli” tarjimalar xorij adabiyoti mohiyatini to‘g‘ri anglashga to‘siq bo‘lishi, muayyan millat adabiyoti haqida xato taassurot uyg‘otuvi, eng yomoni, milliy o‘quvchi didini o‘tmaslashtirishga olib kelishi mumkin. Asl badiiy tarjima esa yozuvchining individual tili, badiiy uslubi, badiiy mushohada qilish usuli va badiiy konsepsiyalari, asar ritmi hamda ruhiyatini milliy tilda ifodalashi maqsadga muvofiqdir. Bunday komil tarjima uchun tarjimondan quyidagi malaka, fazilat va prinsiplar talab qilinadi: a) tarjimonlik iste‘dodi va tarjima asarini erkin, kongenial darajada muvofiq tanlash; b) tarjima etilayotgan asar tilini mukammal bilish, shu tilda so‘zlashuvchi xalq tabiati, ruhiyatini to‘g‘ri anglash; v) tarjima qilinayotgan til (ya‘ni o‘z ona tili) tarixi, joriy va botiniy-ruhiy imkoniyatlarini ideal darajada o‘zlashtirganlik; g) tarjima qilanayotgan asarda tasvirlangan voqelik, ayni voqelik ichida kelayotgan inson obrazi, uning kasb-kori, ruhi holati, u duch keladigan joy, vaqt, tarixiy vaziyat, har bir predmet va detalgacha teran bilish, tushunish, tahliliy idrok kontekstida qabul qilish. Ammo hali 60-70-yillarda ham o‘zbek tarjimachiligi bunday fenomenal qoidalarni to‘la o‘zlashtirgan edi deb bo‘lmaydi. Buning sababi ikkita edi. Birinchidan, bu yillar adabiy-ilmiy jarayoni sobiq sovetlar adabiy siyosati belgilash bergan yo‘ldan yurishga majbur edi. Nainki tarjimonlar, hatto tarjima qilinishi lozim bo‘lgan mualliflar, ularning asarlari ham yuqoridan belgilab berilgan. Ikkinchidan, zamonaviy o‘zbek tarjimachiligi ming yillar osha davom etib kelayotgan milliy tarjimonlik an‘analaridan, bu an‘analarni izchil va ilmiy davom ettirgan jadidlarni qatag‘on qilish, jisman mahv etish yo‘li bilan, uzib qo‘yilgan, yangi tarjimonlar avlodini sovet mafkurasiga ko‘ra shakllantirish rejalashtirilgan edi. Sovet hukumati o‘z adabiy

siyosatida qat'iy va shafqatsiz bo'lib, unga amal qilmagan mustamlaka millatlar adabiyoti jazoga mahkum bo'lgan. Shunga qaramasdan, 70-yillarga kelib, o'zbek tarjimashunoslari tarjima tamoyillarini aniq ilmiy kriteriyalar bilan boyitish, "katta adabiyot" talablariga ko'ra yangi mezonlarni ishlab chiqishga uringanlarini kuzatish mumkin. 70-yillar tarjimashunosligida ayni xulosa isbotiga xizmat qiladigan o'nlab misollar bor. Ammo bu o'rinda, ilmiy tadqiqot hajmi e'tibori bilan, yagona xarakterli misol keltirish bilan chegaralanamiz: "Badiiy tarjima praktikasida jiddiy o'rganilmay kelayotgan muammolar juda ko'p. Shulardan ba'zilarini qayd etish zarurati bor:

a) kitobxonga tushunarli til bilan tarjima qilish tarjimada avtor va asarning til, uslub xususiyatlarini o'zgartirish huquqini beradimi;

b) aksincha, avtorning til va uslub xususiyatlarini aks ettirish asarni hijjalab tarjima qilish lozimligini ko'rsatadimi;

v) nima sababdan badiiy tarjima qilish prinsiplari qat'iy bo'lsa ham, bir asarni bir necha kishi ag'darsa, bir-biridan jiddiy tafovut qiladigan bir necha xil tarjima hosil bo'ladi. Tarjima bu taxlit xilma-xillikka yo'l qo'yishi mumkinmi?" (Salomov, 1973: 53.). Olim o'zi qo'ygan bunday teran va muhim savollar javobini ham ochiq qoldirmaydi. Mavjud materiallar va jahon tarjimashunoslari xulosalaridan kelib chiqib, ularga shu tarzda asosli va original javob beradi. Uningcha, tarjimadagi jiddiy kamchiliklar va tafovutlar quyidagi sabalarga ko'ra paydo bo'ladi: 1) tarjimonlarning tajribasi, malakasi va e'tiqodi bir-biridan farq qilishi natijasida tabiiy ro'y beradigan tafovutlar; 2) tarjimonlarning tarjima prinsiplarini har xil talqin qilishlari tufayli kelib chiqadigan tafovutlar; 3) tarjimonlarning uslublari avtor uslubiga ta'sir qilishi natijasida tabiiy ro'y beradigan tafovutlar (Salomov, 1973: 54.). Tom ma'nodagi kongenial tarjimaning shartlari esa quyidagicha: "Avtor uslubining ichki energiyasi: badiiy ohang, harakat, so'z va so'z tizmasining zamirida yashirinib yotgan semantik hodisani, har bir avtorning o'ziga xos yumor yaratish xususiyatini, uning so'z tanlash va so'z biriktirish borasidagi yangiligini, badiiy asarning eng muhim xossasi bo'lgan obrazlilikni, har bir tovush, nuqta va vergulning badiiy funksiyasini bilib to'g'ri aks ettirishdan iborat"(Salomov, 1973, 57.).

Ayni paytda, muallif tili nozikligi, adekvatligini saqlash masalasi o'zbek tarjimashunosligining eng aktual nazariy muammosi o'laroq tadqiq etilgan. Bundan ko'zlangan maqsad esa tarjimonlik estetikasi va etikasi kriteriyalarini belgilashdir. Tarjimashunos S.Salomova M.Sholoxovning "Tinchoqar Don" romani tarjimasining uchta variantini solishtirib, bular (M.Osim, O.Sharopov, V.Ro'zmatov tarjimalari) ichida V.Ro'zmatov tarjimasida har jihatdan muallif tiliga yaqinligini qator misollar bilan asoslaydi. Don kazaklari tiliga xos latiflik, kinoya, qochirim kabi unsurlarning V.Ro'zmatov tarjimasida milliy til zaminida qurilganiga urg'u beradi. Asardagi: "...До самой зари звенила балалайка, вздыхали басы и тонко

выговаривали нижние лады двухрядки, парни и девки плясали и пели...” tarzida ifodalangan tasvirni V.Ro‘zmatov shunday tarjima qiladi: “...*Sahargacha balalayka ovozi yangrar, garmonning baland pardalari do‘rillab, pastki pardalari chiyillar, yigit va qizlar o‘yin tushib, qo‘shiq aytishar...edi*”. Muallif ushbu o‘girmadagi quyidagi jihatlarni alohida ta’kidlab ko‘rsatadi: “Bu parchadagi **yangrar, do‘rillar, chiyillar** fe’llari *звенили, вздыхали басы и тонко выговаривали* fe’llarining funksiyasini to‘la bajarib kelgan” (kursiv muallifniki – U.J.). (Salomova, 1973: 88.). Muallif tili nozikliklarini saqlash masalasi (89-b.)da olima, umuman, badiiy nasr tarjimasini amalga oshirilganda mukammal bo‘ladi degan savolga shunday xulosaviy tarzda javob beradi: “*Avtor tilining o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur anglash, sifatlash, majoz, fe’llarning uslubiy xususiyatlarini yurakdan his qilish va shu asosda asl nusxadagi leksik komponentlarga mos va teng keladigan ekvivalentlar topish tarjimada yozuvchi uslubi va mahoratini aks ettirishning muhim tomonlaridan biridir*” (Salomova, 1973: 88.). Negaki, sanalgan uchta badiiy vositaning ham asar poetikasini his etish jarayonida ulkan retseptiv ahamiyati bor. Agar o‘zga tilda yozilgan asarda aks etgan mana shu vositalar noto‘g‘ri tarjima qilinadigan bo‘lsa, mazmun noqisligi maydonga kelishi aniq. Agar poetik matnda sifatlash orqali tasvir etilayotgan voqea yoki obraz botiniy olami kashf etilsa, fe’llar uslub yoki poetik matn ruhiyati va maromini ta’min etadi. Majoz esa, poetik ifodaning kompleks shakli bo‘lib asardagi mazmun-shakl uyg‘unligiga dalolat qiladi. O‘zbekcha tarjima matndagi **yangrar, do‘rillar, chiyillar** fe’llari ko‘ngil ochish epizodidagi harakatni, balki ko‘ngil ochayotgan yigit-qizlar o‘rtasida kechayotgan psixologik holatni nozik aks ettirishga xizmat qilgan.

Shuningdek, she’riy asar tarjimasini haqida ham muayyan nazariy umumlashmalar kuzatiladiki, ayni umumlashmalar lirik asarlar tarjimasini yo‘lidagi izlanishlar, yutuq va kamchiliklarni namoyon etishi bilan birga, poeziya tarjimasiga xos ayrim ilmiy kriteriylarni bilib olishimizga asos bo‘ladi. Tadqiqotchi M.Qo‘shmoqov A.Blok “O‘n ikki” poemasi haqida A.Muxtor tomonidan qilingan o‘girmasi ustida atroflicha to‘xtaladi. Shunchaki to‘xtalib qolmaydi, asarning ruscha variantiga xos “amrona” ohang, nozik metafora, jangovor marom haqida so‘z yuritar ekan, A.Blok poeziyasini naqadar chuqur his etishini namoyish qiladi. Tarjimashunos olimga xos aynan shu sifat “O‘n ikki” poemasi tarjimonning yutuq va kamchiliklarini yaqqol anglash imkonini bergan. Masalan, Blokning “Успокой, Господи, душ-у рабы твоея... Скучно!...” misralari A.Muxtor tomonidan “*Yo Parvardigor, yupat qulingni... G‘ashman!*” deb tarjima qilingan. Bir qarashda misra mazmuni tarjimaga ham to‘la ko‘chib o‘tgandek. Ammo originaldagi ruhoniyl shiddat, tuyg‘uning fojiviyligi, ohang kulrangligi tarjimada u qadar bilinmaydi. M.Qo‘shmoqov bu jihatni nozik anglashi barobarida tarjimashunoslik etikasining yuksak maqomida turib baho beradi: “Tarjimada iltijo ohanglari yo‘qolgan:

“G‘ashman!” nidosi “Skuchno!” darajasiga ko‘tarilolmagan. Sababi nimada? Biz tahlil etadigan o‘ringacha misralar epik usulda yaratiladi. *Daf‘atan, davom etib kelayotgan usul o‘zgaradi-da, navbatdagi misralar murakkab ichki dunyo, murakkab ruhiy holatning o‘ziga aylanadi-qoladi. Ta’bir joiz bo‘lsa, lirik usulga ko‘chiladi. Taajjubki, bunday “ko‘chish”ni sezmay ham qolasiz*” (kursiv bizniki – U.J.) (Qo‘shmoqov, 1973: 71-72.). She’riyatda voqea tasvir etilayotgan ohang bilan botin tasvir etilayotgan lahza ohangi o‘ta sezilarsiz darajada aks etadi. Buni sezmay qolish oqibatida tarjimada ohang tovlanishlari ifodalanmay qoladi. Tarjimashunos A.Muxtor tarjimasidagi mana shu holatni aniq ilg‘aydi. Ammo ilmiy etika, tanqid odobini mukammal sohibi sifatida sharqona lutf bilan cheklanadi. “Sezmay ham qolasiz” deyish bilan tarjimon aybini umumlashtiradi. To‘g‘rirog‘i, umumlashtirish usuli bilan aytadiki, bu tarjima muallifi ko‘nglini ranjitmaganidek, ta’sir kuchi ham sezilarli bo‘ladi. Ayni paytda lirik tarjimaning muhim bir qonuniyati she’r maromini his etish mezonini urg‘ulab ketishga erishadi. M.Qo‘shmoqov bunday teran tahlil va nazariy xulosalarga yagona tarjimon ijodini tahlil qilish bilan kelmaydi. Balki dastlab A.Blokning J.Jabborov, Shukrullo, E.Vohidov kabi tarjimonlari orasidan A.Muxtorni, ayni paytda, A.Muxtorning ham eng yaxshi tarjimasini ajratib oladi. Shu bois tarjima haqidagi tahlillar, kashfiyotlar, e’tiroflar, hatto tanqidlar ham mana shunday salmoqli tus oladi.

Tarjimashunos Z.Zumratbekovanning “adekvat ohang” haqidagi fikrlari ham M.Qo‘shmoqov xulosalariga monand keladi. M.Yu.Lermontov she’riyati tarjimalari asosida fikr yuritgan olim “adekvat ohang” muammosini shu tarzda o‘rtaga tashlaydi: *“Avvalo, adekvat vazn, to‘g‘rirog‘i, adekvat ohang deb nimani tushunish kerak?*

Ohang mazmuni yorqin ko‘rsatishga yordam beradi. Mexanik tarzda qayta yaratilgan ohang rus kitobxonida paydo qilgan hissiyotni o‘zbek kitobxonida qo‘zg‘ay olmasligi tabiiy. Bu asar asl nusxasida qanday eshitilsa, tarjimada ham shunday ohangdor bo‘lishi kerak demakdir. Ayni vaqtda ohang mazmuniga mos kelishi va o‘ziga xosligi to‘g‘risida tasavvur qoldirishi lozim. Shunday ohang adekvat hisoblanadi” (Zumratbekova, 1973: 91.).

O‘zbek tarjimashunosligining muhim nazariy muammolari, tarjima ishiga xos kriteriyalar, uning mexanik ish emas, sof ijodiy ish ekani haqidagi ilmiy xulosalar, nazariy kriteriyalar, asosan, turkiy tillardan qilingan tarjima manbalari, badiiy matnlarni o‘girish amaliyoti negizida ishlab chiqilgan. Voqelikda genetik qondosh tillardan tarjima qilishning ham qulay, ham noqulay tomonlari borki, o‘zbek tarjimashunoslari 70-yillardan e’tiboran bu masalaning amaliy-nazariy jihatlarini tadqiq etib keladilar. Haqiqatan ham, bir qarashda turk, tatar, turkman, qirg‘iz, qozoq, ozarbayjon tillarida yozilgan badiiy asarlarni o‘zbekchalashtirish o‘ta jo‘n ishdek tuyuladi. Chunki dunyodagi barcha turkiy tillarning ildizi bir. Hazrat Alisher

Navoiyga tayanib aytadigan bo'lsak, barcha turkiy millatlar yagona o'zak – Abutturk (hazrati Yofas)dan tarqalgan. Abutturkdan boshlangan turkiy til harakati juda ko'p bosqichlarni bosib o'tgan. Boshqa tillarni o'zgartirgani kabi, ularning ta'siri ostida o'zi ham muayyan o'zgarishlarga uchragan. Abutturkka mansub qaysi bir millat Abulhind, Abularab tarkibiga kiruvchi millatlarning birortasi bilan geografik jihatdan yonma-yon yashagan bo'lsa, unda o'sha millat tiliga xos elementlar ko'paygan. Bundan tashqari geologik, tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoit, talab va ehtiyojlar ta'sirida ham turkiy tillar tarkibiga muayyan so'zlar, so'z birikmalari, iboralar kirib kelgan. Folklor va yozma badiiy adabiyot ham ayni jarayonlarda faol assimilyatsion funktsiya bajargan. Natijada o'zak jihatidan bir bo'lgan turkiy tillar o'rtasida muayyan tafovut maydonga kelgan. Bunday tafovutlar o'z-o'zidan tarjima amaliyotiga doir murakkabliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Yirik tarjimashunoslar G'.Salomov, T.Boboyevlarning "Turkiy tillardan tarjima qilish problemasiga doir" maqolasida qayd etilishcha, sobiq sovet ittifoqi hududida 23 ta turkiy tilda so'zlashuvchi 25000000 aholi millat istiqomat qilgan. Hatto shu, yagona hududiy birlik, yagona ijtimoiy turmush tarzi va siyosiy muhitda yashagan millatlar tilida ham qator leksik, grammatik va orfografik tafovutlar bo'lganki, ulardan tarjima qilishga doir nazariy tamoyillarni ishlab chiqish o'z vaqtida eng dolzarb vazifaga aylangan. Tadqiqot mualliflarining yozishlariga ko'ra, XX asr 70-yillarida sobiq ittifoq tarkibida "Besh ittifoqdosh respublika: O'zbekiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Ozarbayjon va Qozog'istonda, olti avtonom respublika: Boshqirdiston, Qoraqalpog'iston, Tatariston, Chuvashiston, Yoqutiston, tuvada; ikki avtonom oblast: Tog'li Oltoy va Xakasiyada aholining ona tili turkiy til hisoblanadi. Shuningdek, Dog'iston ASSRda qo'miqlar bilan no'g'oylar, Stavropol o'lkasida no'g'oylar va truxmenlar, Moldaviya SSRda gagauzlar, Naxchevan ASSRda qaraimlar, Donetsk oblastida urumlar, Qrim va boshqa joylarda qrim tatarlari ham turkiy tilda so'zlashadilar" (G'.Salomov, T.Boboyev, 1973: 132.). Bu hali sobiq ittifoq doirasidagi umumiy bir statistika. Jahon miqyosida olinadigan bo'lsa, turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar soni to'rt yuz millionga boradi. Bu son Yer sayyorasida yashaydigan ongli mavjudotning salmoqli bir qismini ifoda etadi. Bu ham hamon aniq statistika emas. Hali turkiy urug', qabila, elat, millat, xalqqa mansub aholining kashf etilmagan, tan olinmagan, e'tirof qilinmagan doira va qatlamlari ko'p. Qipchoq, qarluq, o'g'uzdan iborat uch buyuk shevaning yuzlab lahjalarida so'zlashuvchi odamlar Yer sharining istalgan nuqtasida mavjudki, ularning barchasi til, millat va tarix nuqtayi nazaridan Abutturk avlodlari hisoblanadilar. Tarjima va tarjimashunoslik esa mana shunday tarixiy jarayonlar, dissemyatsion o'zgarishlar oqibatida o'zaro uzoqlashib ketgan madaniyatlar ildizini topish va ularni yagona ilmiy-adabiy, ma'naviy-ma'rifiy tizimga olib kelishdir.

Ayniqsa, sobiq sovet mustamlakasidan ozod bo'lgan turkiy xalqlar uchun bu jihat o'ta muhim sanaladi.

Bunday nazariy va amaliy ishlarni amalga oshirish uchun bir turkiy tildan ikkinchi turkiy tilga qilinadigan tarjimalar, tarjima jarayonidagi eng muhim prinsiplar belgilab olinmas ekan, milliy tarjimashunoslik, uning muvaffaqiyati va taraqqiyoti xususida so'z ham bo'lishi mumkin emas. Albatta, "Qardosh turkiy tillardan o'zbek tiliga bevosita tarjima qilish, shubhasiz, ancha qulay. Albatta, turkiy tillarning grammatik qurilishi, leksika va frazeologiyasidagi o'xshashliklar, mushtarak qonun-qoidalar va umumiyliklar ko'p" (G'.Salomov, T.Boboyev, 1973: 133). Ammo bu jihatlar turkiy tillardan tarjima qilish amaliyotini osonlashtirmaydi, aksincha, qiyinlashtiradi. Xuddi shunday, tarjima amaliyoti davomida qator muammolar yuzaga keladiki bunday muammolarning aksariyati "begona" tillardan o'girilganda uchramasligi ham mumkin. Masalan: a) grafik jihatdan yagona shaklda yozilgan bir so'z ikki turkiy tilda mutlaq zid ma'noni berishi mumkin; b) bir xil grafik shaklda yozilgan yagona so'z ikki turkiy tilda o'ziga xos tarzda talaffuz qilinadi. Aynan talaffuzdagi o'zgachalik ma'no o'zgachaligini keltirib chiqaradi; v) ba'zi turkiy tillarda gap semantik jihatdan nisbatan keng yoki qisqa shaklga ega bo'lishi mumkin. Tarjimada shu jihatni nazardan qochirish uslub g'alizligi va mazmun saktaligini keltirib chiqarishi aniq.

Barcha turkiy tillar tarixan bir o'zakdan kelib chiqqani, asosiy so'z turkumlari, leksik, grammatik, morfologik, fonetik qoidalar yagona asosga ega ekani shubhasiz. Ammo madaniy-tarixiy tarixiy jarayonlarda ma'no differentsiatsiyasini maydonga keltirganki, buni hisobga olmaslik prinsipial ma'noda xatodir. "Masalan, qardosh so'zini olib ko'raylik. Bu so'z o'zbek tilida umuman qavm-qarindoshlikni bildirsa, qirg'iz tilida u, bundan tashqari va asosan, faqat muayyan yaqinlikni bildiradi: qarindosh – 1. Ota tarafdan, o'z amakisidan kichik bo'lgan ayol qarindosh – jiyan. 2. Akasiga nisbatan kichik singil (ammo opaga nisbatan emas). Tatar tilida esa qarindosh so'zi yo'q, bu ma'noda qardosh qo'llanadi. Turkiy tillarda ota, ona, aka kabi qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi so'zlar va bu so'zlarning ma'no tomonidan birikish xususiyatlarida ham mushtaraklik bilan birga, katta tafovutlar bor... O'zbek tilida ota so'zi – dada, doda, ada; ona so'zi – oyi, aya, ena, opa, bibi, buvi, acha deb ishlatiladi...Ana (ona) so'zi turkiy tillardan birida xola o'rnida keladi. Acha so'zi Namangan shevasida ona, ba'zi joylarda esa buvi, katta buvi ma'nolarida ishlatilsa, teleut va oltoylarda aka, amaki, rafiqasining katta amakisi (qayn amaki) ma'nolarini bildiradi. Qirg'iz tilida xuddi shu so'z vayrona, qurt va boshqa bir yomon ma'noni anglatadi" (G'.Salomov, T.Boboyev, 1973: 134-135).

Ag'a (og'a) so'zi sog'ay lahjasida "buva", qirg'izlarda "katta aka", "do'st", "oshna", "amaki" ma'nolarida keladi. Ayrim turkiy tillarda, xususan, xonliklar davri o'zbek tilda ham, bu so'z bichilgan haram og'asi, qul ma'nolarida ishlatilgan.

Ozarbayjonlarda esa agʻa soʻzi turli oʻrinlarda turlicha maʼno bildirishi bilan xarakterli. Masalan, agar bu soʻz atoqli otdan keyin – Jaʼfarquli ogʻa, Mahmudxon ogʻa – tarzida ishlatilsa, xon lavozimidagi kishini bildiradi. Atoqli otdan oldin kelsa, ogʻa-Mahmud, ogʻa-Hasan tarzida ishlatilsa, boy savdogar, katta mansabdagi shaxsni bildiradi (qarang: Gʻ.Salomov, T.Boboyev, 1973: 136-137).

XX asrning 60-70-yillaridan eʼtiboran turkiy tillardan oʻzbekchaga oʻgʻirish jarayoni jadallashgani, muayyan tizimga tusha boshlagani kuzatiladi. Yunus Emro, Abay Qoʻnonboyev, Jambul Jabayev, Qaysin Quliyev, Musa Jalil, S.Muqonov, Muxtor Avezov, Xidir Deryayev, Oʻljas Sulaymonov, Chingiz Aytmatov singari turkiylarning buyuk ijodkorlaridan oʻzbek tiliga qilingan tarjimalar “turkiy tillardan tarjima qilish muammolari”ni anchayin yengillashuviga sabab boʻlgan. Bu jarayon 80-90-yillarda shiddat bilan rivojlanish bosqichiga chiqqan boʻlsa, bugungi kunda aniq tizim, ilmiy-amaliy tajribalar asosida davom etmoqda.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, oʻzbek tarjimachiligi koʻp asrlik tarixga ega boʻlgan, milliy madaniyat va adabiyot rivojida muhim rol oʻynagan ilmiy-amaliy jarayondir. Tarjimaning rivojlanishi nafaqat jahon adabiyoti namunalarini oʻzbek kitobxoniga yetkazish, balki milliy adabiy tafakkurning boyishi va yangi badiiy uslublarning shakllanishiga ham xizmat qilgan. Jadidlar davridan boshlab oʻzbek tarjimachiligi tizimli shaklga ega boʻlib, XX asr davomida professional tarjima maktabi va tarjimashunoslik nazariyasi shakllandi.

Shu bilan birga, tarjima jarayonida muallif uslubini saqlash, original tilni chuqur bilish, vosita til orqali tarjima qilish muammolari kabi qator nazariy va amaliy masalalar ham mavjud boʻlib qolmoqda. Bugungi kunda milliy tarjimachilik maktabini yanada rivojlantirish, jahon adabiyotining eng muhim asarlarini bevosita asl tilidan tarjima qilish hamda tarjimashunoslikning ilmiy asoslarini takomillashtirish muhim vazifalardan biridir. Shu jihatdan, maqolada ilgari surilgan ilmiy qarashlar oʻzbek tarjimachiligi va tarjimashunosligi rivoji uchun muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Aznaurova, E. Tarjima sanʼati. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1973. – 216 b.
2. Aytmatov, Ch. Saylanma. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1989. – 480 b.
3. Valiev, S. [Maqola] // Yer yuzi jurnali. – Toshkent, 1926.
4. Kubikov, A. [Maqola] // Maʼorif va oʻqitgʻuchi jurnali. – Toshkent, 1926.
5. Mualliflar jamoasi. Tarjima sanʼati. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1973. – 320 b.

6. Muqanov, S. Asarlar. – Toshkent: O‘zbekiston madaniyati gazetasi nashriyoti, 1960. – 384 b.
7. Nahanov, O. Sanjar Siddiq haqida // Tarjima san’ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973. – B. 145–150.
8. Olimjon, H. Tarjima haqida // Alanga jurnali. – Toshkent, 1936.
9. Orzibekov, R., Abdurahmonov, A. Tarjimashunoslik muammolari // Tarjima san’ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973. – B. 35–47.
10. Salomov, G‘. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari // Tarjima san’ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973. – B. 10–22.
11. Suobiy, M. Tilanchi. Bo‘sag‘a // Ma‘orif va o‘qitg‘uchi jurnali. – Toshkent, 1925.
12. Siddiq, S. Tarjima sirlari. – Toshkent: O‘zSSR Davlat nashriyoti, 1936. – 64 b.
13. Siddiq, S. Adabiy tarjima haqida // Qizil O‘zbekiston gazetasi. – Toshkent, 1935.
14. Siddiq, S. Adabiy tarjima asoslari // Kitob va inqilob jurnali. – Toshkent, 1932.
15. Siddiq, S. Sahnada til // Qizil O‘zbekiston gazetasi. – Toshkent, 1935.
16. Sharipov, Y. Xorij tillaridan tarjima amaliyoti // Alanga jurnali. – Toshkent, 1929.
17. Shakespeare, W. Hamlet, Daniya shahzodasi / rus tilidan tarj. M. Shayxzoda. – Toshkent: O‘znashr, 1948. – 168 b.
18. Shakespeare, W. Pesalar. – Toshkent: O‘znashr, 1960. – 512 b.
19. Qahhor, A. Tarjima san’ati // Tarjima san’ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973. – B. 120–130.
20. Qo‘shmoqov, M. Tarjima san’ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978. – 210 b.
21. Qosimov, B. Milliy uyg‘onish. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2002. – 256 b.
22. G‘ozi, Yu. Maymun va ko‘zoynak / Kirilovdan tarjima. – Toshkent: O‘zdavnashr, 1921. – 32 b.
23. Köprülü, M. F. Edebiyat Araştırmaları. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 1986. – 412 s.
24. Alptekin, A. B. Halk Hikâyelerinin Motif Yapısı. – Ankara, 1997. – 320 s.
25. Kasap, I. Halk Hikâyeleri Üzerine // Hece. Türk Öykücülüğü Özel Sayısı. – 2000. – Sayı 4. – S. 127–134.
26. Sami, N. Özlerdim. Türk Öykü Kitapları Zaman Dizimi // Türk Dili. Türk Öykücülüğü Özel Sayısı. – 1975. – S. 286–295.

REFERENCES

1. Aznaurova E. (1973). Tarjima san'ati. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.
2. Aytmatov Ch. (1989). Saylanma. Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. Valiev S. (1926) Toshkent: Yer yuzi jurnali.
4. Kubikov A. (1926) Toshkent: "Ma'orif va o'qitg'uchi" jurnali.
5. Mualliflar jamoasi (1973). Tarjima san'ati. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.
6. Muqanov S. (1960). Asarlar. Toshkent: O'zbekiston madaniyati gazetasi.
7. Nahanov O. (1973). Sanjar Siddiq haqida, Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.
8. Olimjon H. (1936). Tarjima haqida. Toshkent: Alanga jurnali.
9. Orzibekov R., Abdurahmonov A. (1973). Tarjimashunoslik muammolari. Tarjima san'ati. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.
10. Salomov G'. (1973). Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. Tarjima san'ati. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti
11. Suobiy M. (1925). Tilanchi. Bo'sag'a, Toshkent: Ma'orif va o'qitg'uchi" jurnali.
12. Siddiq S. (1936). Tarjima sirlari, Toshkent: O'zSSR Davlat nashriyoti.
13. Siddiq S. (1935). Adabiy tarjima haqida. Toshkent: Qizil O'zbekiston gazetasi.
14. Siddiq S. (1932). Adabiy tarjima asoslari. Toshkent: Kitob va inqilob jurnali.
15. Siddiq S. (1935). Sahnada til. Toshkent: Qizil O'zbekiston gazetasi.
16. Sharipov Y. (1929). Xorij tillaridan tarjima amaliyoti. Toshkent: Alanga" jurnali.
17. Shekspir V. (1948) Hamlet. Daniya shaxzodasi. Rus tilidan Maqsud Shayxzoda Toshkent: O'znashr.
18. Shekspir V. (1960). Pesalar. Toshkent: O'znashr.
19. Qahhor A. (1973). Tarjima san'ati. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.
20. Qo'shmoqov M. (1978). Tarjima san'ati. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.
21. Qosimov B. (2002). Milliy uyg'onish, Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
22. G'ozil Yu. (1921). Maymun va ko'zoynak. Kirilovdan tarjima Toshkent: O'zdavnashr.
23. Köprülü M.F. (1986). Edebiyat Araştırmaları. Türk Tarih Kurumu Yayınları, Ankara.
24. Alptekin Ali Berat. (1997). Halk Hikayelerinin Motif Yapısı. Ankara. S.42.
25. Kasap I. (2000). Halk Hikayeleri Üzerine. Hece // Türk Öykücülüğü Özel Sayısı. Sayı:4. S.127.
26. Sami N. (1975). Özlerdim "Türk Öykü Kitapları Zaman Dizimi", Türk Dili, Türk Öykücülüğü Özel Sayısı, –S.286.